

Toshkent sh.

“05” 05 2022 yil

“Toshkent shahar mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” DUK (keyingi o'rirlarda Buyurtmachi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor O.Abdunazarov bir tomondan va "RAVON LOYIHA LUX" MCHJ (keyingi o'rirlarda Bajaruvchi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor X.Abdullayev ikkinchi tomondan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi 2022-2026-yillarda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi №PQ-172 sonli qarori bo'yicha budget mablag'lari xisobidan joriy ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va ijobjiy ekspertiza xulosasini olish ishlarini bajarishga doir amaldagi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi “Davlat xaridlari to'g'risida”gi 684-tonli qonuniga asosan xarid.uzex.uz maxsus axborot portal orqali (Lot raqami 73739) e'lon qilingan va “Toshkent mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” DUK xarid komissiyasining 2022 yil 05 05 dagi bayonnomasiga asosan quyidagi shartnomani tuzdilar:

### 1. Shartnoma predmeti va muddati.

1.1. Bajaruvchi Yakkasaroy tumani X.Sulaymon MFYdagi Katta Mirobod va Katta Mirobod 1-tor ko'chalari joriy ta'mirlash loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish va ijobjiy ekspertiza xulosasini olish majburiyatini, Buyurtmachi esa uni qabul qilib olish majburiyatini oladi.

1.2. Bajaruvchi loyiha-smeta xujjatlari ishlarini O'zbekiston Respublikasida belgilangan huquq va qonun talablariga asosan amalga oshiriladi.

1.3. Bajaruvchi shartnoma bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqadi, shu jumladan uchinchi shaxsnı yollagan xolda belgilangan tartibda loyiha-smeta xujjatlarini davlat ekspertizasidan o'tkazadi.

1.4. Bajaruvchi loyiha-smeta hujjatlarini Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan birlamchi ma'lumotlar asosida shartnoma va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xuzuridagi Respublika G'aznachiligi yoki uning xududiy boshqarmalarida ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab shartnomaning 2-ilovasi “Bajarish va moliyalashtirish jadvali”da belgilangan muddatlarda bajaradi.

1.5. Bajaruvchi loyiha-smeta xujjatlari ishlari bo'yicha davlat va zarur bo'lganda boshqa tegishli ekspertiza xulosasini olgandan so'ng, ishlarni bajarish muddati davrida 3 (uch) nusxada mazkur loyiha va qidiruv ishlari xujjatlarini Buyurtmachiga taqdim etishi kerak.

1.6. Ish jarayonida kelishilgan asosiy loyihami yechimlarni buyurtmachiga topshiriladi.

### 2. Shartnoma bahosi va to'lovlar qoidalari.

2.1. Shartnomaning bahosi shartnoma taraflarining kelishuvi (1-ilova)ga asosan QQS bilan **13 610 400 (o'n uch million olti yuz o'n ming to'rt yuz)** so'mni tashkil etadi va mazkur shartnomaning 2-ilovasidagi “Bajarish va moliyalashtirish jadvali”ga muvofiq bajariladi.

2.2. Buyurtmachi shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika G'aznachiligi yoki uning xududiy boshqarmalarida ro'yxatdan o'tgandan so'ng 5 kun mobaynida shartnoma bahosining 30 foiz miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

2.3. Shartnoma bo'yicha qolgan mablag', Bajaruvchi loyiha-smeta xujjatlari ishlari davlat va zarur bo'lganda boshqa tegishli ekspertizasi xulosasini olib, Buyurtmachiga taqdim etgandan so'ng, topshirish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtirilib, 15 kun mobaynida dastlab to'langan avans mablag'i (shartnoma bahosining 30 foizi miqdorida) ushlab qolinib, Buyurtmachi tomonidan qabul qilingan hisob-faktura (schyot-fakturaga asosan) moliyalashtiriladi.

2.4. Shartnomaning bahosi uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlar qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;
- ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda.

Dastlabki hisoblangan smeta hujjatlariga ekspertiza xulosasi olingandan so'ng, loyiha-smeta hujjatlarini bahosi (mahalliy byudjetdan moliyalashtirilganda Toshkent shahar moliya boshqarmasi) Toshkent shahar va tuman (shahar) xalq deputatlari qarorlariga yoki Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan manzilli ro'yxatga asosan Buyurtmachi va Bajaruvchi roziligi bilan zaruratga ko'ra ushbu shartnomaga qo'shimcha kelishuv imzolash yo'li bilan o'zgartirish kiritish mumkin.

### 3. Tomonlar majburiyatları.

3.1. Buyurtmachi barcha ishlari bajarilib bo'lingandan keyin belgilangan narxning hammasini Bajaruvchiga to'lashi yoki ishlarining ayrim bosqichlari tugatilganidan keyin narxning tegishli kismini to'lashi, tayyorlangan loyiha-

meta xujjatlarining kamchiliklari borligi munosabati bilan uchinchi shaxs tomonidan Buyurtmachiga nisbatan qo'zg'atilgan davo yuzasidan ishda qatnashishiga Bajaruvchini jalg qilishi shart.

3.2. Buyurtmachi ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan birlamchi ma'lumotlarni (nuqsonlar qaydnomasi yoki ijro hujjatlari, pudrat tashkilotining o'rtacha ish haqi, ishlatiladigan mashinalar, mexanizmlar va texnik ko'rsatkichlarga ega transport vositalari, ularning ishslash xarajatlari ko'rsatkichlari, pudratchining boshqa xarajatlarini) taqdim qiladi.

3.3. Bajaruvchi Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan birlamchi ma'lumotlarni 10 (o'n) ish kuni moboynda o'rganib chiqishi hamda berilgan ma'lumotlarda kamchiliklar aniqlansa Buyurtmachiga ma'lum qilishni o'z zimmasiga oladi.

Agar Bajaruvchi Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan birlamchi malumotlarda aniqlangan kamchiliklarni, 10 (o'n) ish kuni muddat ichida Buyurtmachiga ma'lum qilmasa, ma'lumotlar qabul qilingan deb xisoblanadi va bunday xolat Bajaruvchi ishlarni bajarish muddatini o'zgartirishga asos bo'la olmaydi.

3.4. Bajaruvchi loyiha-smeta ishlardagi kamchiliklar uchun, shu jumladan keyinchalik qurilish jarayonida, shuningdek tayyorlangan loyiha-smeta xujjatlari va bajarilgan qidiruv ishlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan obyektni ishlatish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgar bo'ladi. Agar loyiha-smeta xujjatlari yordamchi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa kamchiliklar aniqlangan taqdirda Bajaruvchi, yordamchi tashkilot bilan birga ishlab chiqilgan loyiha-smeta xujjatlari uchun to'liq javob beradi va Buyurtmachining talabi bilan loyiha-smeta xujjatlarini bepul qayta ishlab chiqish va shunga muvofiq zarur qo'shimcha ishlarni bajarishi shart.

3.5. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov o'z vaqtida o'tkazilmagan xolda yoki dastlabki ma'lumotlarni taqdim qilish kechiktirilganda ishlarni tugallash muddati to'lov yoxud taqdim kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

3.6. Bajaruvchi loyihaning asosiy yechimlarini Buyurtmachi bilan birgalikda tegishli idoralar va tashkilotlar bilan kelishiladi.

#### **4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi.**

4.1. Loyiha-smeta xujjatlari ishlari bajarilishining alohida bosqichi va shartnoma bo'yicha belgilangan jami ishlar tugagandan so'ng Bajaruvchi Buyurtmachiga ishlarni topshirish - qabul qilish dalolatnomasi bilan loyihalash uchun topshiriqda ko'zda tutilgan hujjatlar to'plamini topshiradi.

4.2. Buyurtmachi ishlarni topshirish - qabul qilish dalolatnomasi va mazkur shartnomaning 4.1- bandida ko'rsatilgan hisobot hujjatlarini olgandan so'ng 10 (o'n) kun mobaynida ishlarni qabul qilish va Bajaruvchiga imzolangan topshirish va qabul qilish dalolatnomasini yoki ishlarni qabul qilmaslikning asoslangan rad javobini yuborishni o'z zimmasiga oladi.

Agar Buyurtmachi ishlarni qabul qilgan kundan boshlab 10 (o'n) kun muddat ichida Bajaruvchiga kamchiliklar ko'rsatilgan ishlarni qabul qilmaslik rad javobini yubormasa, ishlar qabul qilingan hisoblanadi va bunday holatda Buyurtmachi ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolab, bir nusxasini Bajaruvchiga qaytarishi shart.

4.3. Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergen holda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnomasi tuziladi.

4.4. Agar loyiha-smeta xujjatlari ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun mobaynida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart.

4.5. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga loyiha-smeta xujjatlari bo'yicha xulosa uchun murojat qilishi mumkin.

#### **5. Konfidentsial ma'lumotlarni himoyalash.**

5.1. Loyiha-smeta xujjatlari ishlaringin bajarilishi davrida Bajaruvchi o'zi konfidentsial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni Buyurtmachidan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

#### **6. Nizolarni xal etish.**

6.1. Shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan nizolarni taraflar o'zaro muzokara yo'li bilan hal etadi. Muzokara natijasida kelishuvga kelinmagan taqdirda nizolar taraflar tomonidan Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi berish va ishni sudda ko'rib chiqilishi natijasida hal qilinadi.

#### **7. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish.**

7.1. Mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim ko'rinishidagi o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda qilingan hamda tomonlar (yoki tomonlar nomidan vakillar) imzolagan holdagina G'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin yuridik kuchga ega bo'ladi.

7.2. Shartnoma taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin. Shartnoma o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuvi yozma shaklda amalga oshiriladi. Shartnomani bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yoki shartnomaning shartlarini bir taraflama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

7.3. Bir taraf shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdan rad javobi olganidan keyingina shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

#### 8. Fors-major.

8.1. Fors-major vaziyatlari paydo bo'lishi munosabati bilan mazkur shartnomadagi tomonlar majburiyatları butunlay bajarilmasa yoki qisman bajarilsa, majburiyatlarini bajarish muddatlari bunday vaziyatlar ta'sir etishi vaqtiga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

#### 9. Qo'shimcha shartlar.

9.1. Bajaruvchi Loyiha-smeta xujjatlari ishlarini muddatidan oldin bajarganida, Buyurtmachi uni Shartnomaning 4-bandiga asosan qabul qiladi va to'la to'lojni amalga oshiradi.

9.2. Bajaruvchi Shartnoma shartlarini bajarish uchun, Shartnomada belgilangan muddatlarga rioya qilinishini inobatga olgan holda hamda Buyurtmachi bilan kelishilgan xolda, yordamchi tashkilotlarni jalg qilishi mumkin.

9.3. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirilganda shartlashilgan xaqi kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 20 foizidan oshmasligi lozim.

9.4. Bajaruvchi tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash o'z vaqtida bajarilmay majburiyatlar buzilgan bo'lsa, Bajaruvchi Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 20 foizidan oshmasligi lozim.

9.5. To'langan penya taraflarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

9.6. Shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va har ikkala nusxasi ham bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi.

9.7. Shartnoma 31.12.2022 yilga qadar amal qiladi.

9.8. Shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

1-ilova - Shartnoma bahosining kelishuvi bayonnomasi;

2-ilova - Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishni bajarish va moliyalashtirish jadvali.

#### 10. Tomonlarning manzili va hisob raqamlari

"Buyurtmachi"

**"Toshkent shahar mintaqaviy yo'llarga  
buyurtmachi xizmati" DUK**  
100000.Toshkent shahri, M.Ulug'bek tumani  
Mustaqillik shoh ko'chasi 68-uy  
Tel:237-57-08  
ShG'x: 304521860262697045129118098  
INN: 304 893 532 OKED: 71120  
O'zbekiston Respublikasi Moliya  
Vazirligi G'aznachiligining  
Amaliyot Boshqarmasi  
xG'r: 2340 2000 3001 0000 1010  
MFO 00014 INN 201129919

Direktor

O.Abdunazarov



"Bajaruvchi"

**"RAVON LOYIHA LUX" mas'uliyati  
cheklangan jamiyati**

Toshkent shahri, Sergeli tumani,  
Shokirariq ko'chasi 82-uy  
Tel./faks: (99897) 746-41-36,  
H/r: 2020 8000 0051 6026 9001  
"Ipoteka-bank" ATIB  
Sergeli filiali  
MFO: 00978 INN: 306 997 298  
QOS kodi: 326070177845



X. Abdullayev

Handwritten signatures at the bottom of the document.

177 2022-yil «05» 05 dagi  
177/2022-sonli shartnomaga 1 - ilova

### Shartnoma bahosini kelishuvi

### B A Y O N N O M A S I

Biz, kuyida imzo qo'yuvchilar: **Yakkasaroy tumani X.Sulaymon MFYdagi Katta Mirobod va Katta Mirobod 1-tor ko'chalari joriy ta'mirlash loyixa-smeta xujjalalarini ishlab chiqish va ijobjiy ekspertiza xulosasini olish bo'yicha 2022 yil «05» 05 dagi 177/2022-sonli shartnoma bahosi QQS bilan **13 610 400 (o'n uch million olti yuz o'n ming to'rt yuz) so'mni tashkil qildi.****

Ushbu bayonnomma Buyurtmachi va Bajaruvchi o'rtaida o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos hisoblanadi.

#### “Buyurtmachi”

##### “Toshkent shaharmintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” DUK

100000.Toshkent shahri, M.Ulug'bek tumani  
Mustaqillik shoh ko'chasi 68-uy  
Tel:237-57-08  
Sh/x: 304521860262697045129118098  
INN: 304 893 532 OKED: 71120  
O'zbekiston Respublikasi Moliya  
Vazirligi G'aznachiligining  
Amaliyot Boshqarmasi  
x/r: 2340 2000 3001-0000 1010  
MFO 00014 INN 201129919

Direktor

O.Abdunazarov



#### “Bajaruvchi”

##### "RAVON LOYIHA LUX" mas'uliyati cheklangan jamiyat

Toshkent shahri, Sergeli tumani,  
Shokirariq ko'chasi 82-uy  
Tel./faks: (99897) 746-41-36,  
H/r: 2020 8000 0051 6026 9001  
“Ipoteka-bank” ATIB  
Sergeli filiali  
MFO: 00978 INN: 306 997 298  
QQS kodi: 326070177845



X. Abdullayev

177

2022-yil «05» 05 dagi  
177/2022-sonli shartnomaga 2- ilova

Yakkasaroy tumani X.Sulaymon MFYdagi Katta Mirobod va Katta Mirobod 1-tor ko'chalari joriy ta'mirlash  
loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqish va ijobjiy ekspertiza xulosasini olish

### BAJARISH VA MOLIYALASHTIRISH JADVALI

so'm

№	Bajariladigan ishlarning nomi	Qiymati	Bajarish		Moliyalashtirish muddati
			muddati	qiymati	
	Avans miqdori				4 083 120
1	Loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqish va ijobjiy ekspertiza xulosasini olish	13 610 400	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 7 kun	13 610 400	9 527 280
	Jami:	13 610 400		13 610 400	13 610 400

Buyurtmachi



Bajaruvchi



2022 yil "05" 05 dagi  
17/2022-sonli shartnomaga 3 -ilova

## Korrupsiyaga qarshi shart

### 1.1. Tomonlar:

- Tomonlar, ularning afillangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish soxasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlari talablarining buzulishiga olib kelinadigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni vada qilish, ta'magirlilik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti xarakatlari/xarakatsizliklarini sodir etmaydilar.

- Tomonlar, ularning afillangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari bosq tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalarini, sovg'alarmi taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarini beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi tomon foydasiga qandaydir xatti xarakatlarni/xarakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan vos kechadilar deb ma'lum qiladilar.

1.2. Tomonlar ushbu ilovaning 1.1 bandidagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubxalar yuzaga kelgan holda, tegishli tomon bu haqda ikkinchi tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish soxasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa amaldagi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham habardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Buyurtmachi



Bajaruvchi





“ТАСДИКЛАЙМАН”  
“Тошкент шаҳар минтақавий йўлларга  
буортмачи хизмати” ДУК директори, комиссия раиси  
Абдуназаров  
О.Абдуназаров

“Тошкент шаҳар минтақавий йўлларга буортмачи хизмати” ДУК жорий  
таъмиrlаш ишлари бўйича лойиҳа-смета хужжатларини ишлаб чиқиш ва  
экспертиза хulosасини олиш бўйича хизмат кўрсатувчи ташкилотлар ўртасида  
танлов ўтказиш бўйича комиссия йиғилиши

### Б А Ё Н Н О М А С И № 1

Тошкент ш.

2022 йил “5” 05

Иштирок эттилар:

Комиссия раиси:

“Тошкент шаҳар минтақавий  
йўлларга буортмачи хизмати”  
ДУК директори

О.Абдуназаров

Комиссия аъзолари:

“Тошкент шаҳар минтақавий  
йўлларга буортмачи хизмати”

М.Сирожиддинов

ДУК бош муҳандиси

Б.Ибрагимов

Лойиҳа таъминоти бўлими  
бошлиғи

Н.Юсупов

Ишлаб чиқариш техник бўлими  
бошлиғи

С.Икромхўжаев

Техник кузатиш ва бажарилган  
ишларни қабул қилиш бўлими

Ж.Искандаров

бош мутахассиси

бўлими

Молия-иктисод

бошлиғи

Тендерларни ташкил этиш ва  
шартномалар бўлими бош

С.Аббосов

мутахассиси

### КУН ТАРТИБИ:

“Тошкент шаҳар минтақавий йўлларга буортмачи хизмати” ДУК жорий  
таъмиrlаш ишлари бўйича лойиҳа-смета хужжатларини ишлаб чиқиш ва  
экспертиза хulosасини олиш бўйича

(О.Абдуназаров, М.Сирожиддинов, Ж.Искандаров, С.Икромхўжаев, Н.Юсупов,  
Б.Ибрагимов, С.Аббосов )

ТШМЙБХ ДУК 2022 йил 19 апрелида Ўзбекистон Республикаси товар ва хом-ашё  
биржасининг электрон порталига жорий таъмиrlаш ишлари бўйича лойиҳа-смета  
хужжатларини ишлаб чиқиш ва экспертиза хulosасини олиш бўйича 73825, 73827,  
73829, 73833, 74299, 74302, 74305, 74313, 74318, 74323, 74333, 74340, 74342, 74345, 73800,

73802, 73804, 73806, 73807, 73808, 73809, 73810, 73811, 73812, 73814, 73815, 73816, 73817, 73819, 73821, 73823, 73776, 73777, 73779, 73782, 73783, 73784, 73787, 73788, 73789, 73790, 73791, 73792, 73794, 73795, 73797, 73798, 73799, 73754, 73755, 73756, 73757, 73758, 73759, 73762, 73763, 73765, 73766, 73767 73768, 73769, 73773, 73732, 73734, 73735, 73736, 73737, 73738, 73739, 73740, 73741, 73743, 73745, 73746, 73749, 73750, 73751, 73730, 73731 – лот ракамлари билан эълонлар жойлаштирилди. Мазкур лот бўйича 2022 йил 27 апрельдаги энг яхши таклифларни танлаш савдосини ўтказиш бўйича давлат харидлари комиссиясининг электрон портали орқали шаклланган “**жорий таъмирлаш ишлари бўйича лойиҳа-смета хужжатларини ишлаб чиқиши ва экспертиза хулосасини олиши**” баённомасига асосан эълон якунига кўра Комиссия аъзолари томонидан “Равон лойиҳа люкс” МЧЖ ва “Замонавий йўл лойиҳа” МЧЖлар тегишли лотлар бўйича ғолиб деб топилганлигини инобатга олиб;

#### **КАРОР КИЛИНДИ:**

1. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида”ги 684 – сонли Қонуннинг 62-моддаси З-бандига асосан комиссия баённомаси давлат харидлари электрон тизимига муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди. Икки иш куни давомида давлат харидлари электрон тизимига жойлаштирилган баённома хеч қандай эътиrozлар ёки қўшимча таклифлар келиб тушмаганлиги маълумот учун қабул қилинсин.
2. ТШМЙБХ ДУК Тендерларни ташкил этиш ва шартномалар бўлими бош мутахассиси С.Аббосовга:  
Юқоридагилардан келиб чиқиб ҳамда комиссия аъзоларининг 2022 йил 27 апрельдаги электрон баённомасига асосан тегишли лотлар бўйича ғолиблар “Равон лойиҳа люкс” МЧЖ ва “Замонавий йўл лойиҳа” МЧЖлар билан қонунчиликда ўрнатилган тартибда шартнома тузилсин. Ҳамда хизмат кўрсатиш сифат даражаси нозоратга олинсин.

#### **Комиссия аъзолари**

**М.Сирожиддинов**

**Ж.Искандаров**

**Б.Ибрагимов**

**Н.Юсупов**

**С.Икромхўжаев**

**С.Аббосов**